

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK JARAYONNI TO'G'RI TASHKIL ETISH

ПРАВИЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

PROPER ORGANIZATION OF THE PEDAGOGICAL PROCESS IN PRIMARY SCHOOL

NURMATOVA MADINA ODILJON QIZI.

Qo'qon davlat universiteti dotsenti v.b.

QO'SHOQOVA FARANGIZ AZIZBEK QIZI

Qo'qon davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 205-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim va tarbiyani integratsiyalashgan holda olib borishni nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: Bola, rivojlanish, pedagogik jarayonni, ta'lim, tarbiya o'qituvchi va o'quvchilar.

Аннотация: В данной статье исследуются научно-практические основы правильной организации педагогического процесса в начальных классах. Рассматриваются вопросы интеграции обучения и воспитания на основе внедрения современных педагогических технологий, интерактивных методов, а также с учетом возрастных и психофизиологических особенностей учащихся. Анализируются современные модели взаимодействия учителя и учащихся, способствующие всестороннему развитию детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: начальное образование, развитие личности, педагогический процесс, обучение и воспитание, интерактивные методы, педагогическое сотрудничество.

Abstract: This article examines the scientific and practical foundations of effectively organizing the pedagogical process in primary school. It highlights the integration of education and upbringing through the implementation of modern pedagogical technologies and interactive methods, taking into full account the age and psychophysiological characteristics of young learners. Furthermore, contemporary models of teacher-student collaboration aimed at the comprehensive development of primary school children are analyzed.

Keywords: primary education, personality development, pedagogical process, education and upbringing, interactive methods, pedagogical collaboration.

Pedagogik jarayon — bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi maqsadli, tizimli hamda rejalashtirilgan o'zaro hamkorlik bo'lib, u shaxsni shakllantirish, unga bilim berish va uni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Bu jarayon ta'lim (o'qitish) va tarbiya birligidan iborat bo'lib, yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishda pedagoglik kasbining paydo bo'lishiga e'tibor qaratilsa, shunarsa ko'rinadiki, dastlab uning doirasida differentsiallashtirish va integratsiyalashtirish jarayoni chegaralangan bo'lsa, keyinchalik ta'lim va tarbiya bir-biriga qarama-qarshi qo'yila boshladi, o'qituvchi o'qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda ob'yektiv nuqtai nazardan ta'lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F.Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta'limda vosita bor, lekin maqsad yo'q, ta'limsiz esa maqsad bor, vosita yetishmaydi.

Nemis pedagogi A.Disterveg, ta'limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: "Ta'lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha"

Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F. Kapterev alohida shug'ullandi. U pedagogik jarayonlarning ko'p tomonlarni ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: "Ta'lim, o'qitish, o'rgatish, tarbiya, pand-nasihat, o'git va boshqa bir qator so'zlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yaxlit pedagogik jarayondir".

Boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish pedagogik jarayon - pedagogik fanlarning eng muhim, asosiy tushunchalaridan biri

hisoblanadi. Pedagogik jarayon kattalarning pedagogik faoliyati va tarbiyachilarning boshqaruvchilik roli tufayli hayotiy faoliyat natijasida bolaning o'zini-o'zi o'zgartirishining maqsadga yo'naltirilgan mazmundor, tashkiliy harakatidir.

U haqiqatdan ilmiy asoslangan, rivojlantiruvchi va takomillashib boruvchi tizim sifatida mavjud bo'ladi hamda tarbiya qonuniyatlari, pedagogning ijodkorligi va ta'lim oluvchilarning yosh bilan bog'liq o'zgarishlari dinamikasiga asoslanadi.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish uchun pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog'langan. Uning mohiyati, mazmuni va yo'nalganligi ijtimoiy jarayonlarning holati, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining real o'zaro harakatiga bog'liq bo'ladi. O'quv-tarbiya jarayonining asosiy xususiyati - yaxlitlik, undagi barcha muhim tarkibiy qismlarni saqlab qolish zaruriyati. Yaxlitlik asosiga ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlash pedagogik jarayonning mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik jarayon - ko'plab jarayonlarning ichki aloqadorligi yig'indisidir. Unda o'qitish, ta'lim, tarbiya, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari birlashadi. Boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish pedagogik jarayonning umumiyligi va birligi uni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni yagona maqsadga bo'ysundiradi. Pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlari: uni tashkil etuvchi jarayonlarning birligi va mustaqilligi;

undagi jarayonlarning yaxlitligi va teng huquqliligi;

umumiy mavjudlik va o'ziga xoslikni saqlashda namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonga uning tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorlikda qonuniy joy egallashi birligini o'zida ifoda etuvchi yagona tizim sifatida qarash mumkin. Tuzilish (struktura) - bu tarkibiy qism (element)larning tizimdagi joylashuvidir. Tizimlarning tuzilishi tarkibiy qismlarni qabul qilish mezonlarida belgilangani bo'yicha, bundan tashqari ular orasidagi aloqadorlikda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonning o'zi maqsad, vazifa, mazmun, metodlar, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati shakllari, shu bilan birga erishilgan natijalar bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishda pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: pedagoglar; tarbiyalanuvchilar; tarbiyaviy shart-sharoitlar.

Jarayonning aniq maqsadli tarkibiy qismi pedagogik faoliyatning barcha ko'p obrazli maqsad va vazifalarini: bosh maqsad - har tomonlama va barkamol shaxsni tarbiyalashdan - alohida sifatlarni shakllantirishning aniq vazifasigacha o'z ichiga qamrab oladi.

Mazmunli tarkibiy qism umumiy maqsad bilan birga, xuddi shunday aniq vazifani qo'yadigan ma'noni aks ettiradi. Faoliyatli tarkibiy qism - jarayonni tashkil etish va boshqarishda belgilangan natijalarga erishishga doir pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati va ularning hamkorligi. Mazkur tarkibiy qism pedagogik adabiyotlarda tashkiliy yoki tashkiliy-boshqaruvga doir qism, deb ham nomlanadi. Jarayonning natijaviy tarkibiy qismi uni amalga oshishi samaradorligini aks ettiradi, qo'yilgan maqsad bilan

bog'liqlikda muvafaqqiyatli o'zgarishlarga olib kelish bilan xarakterlanadi.

Professor I.P.Rachenko ta'lim tizimidagi tarkibiy qism(komponent)larni quyidagicha strukturalashtiradi:

tizim faoliyatini aniqlashtiruvchi maqsad va vazifalar;

ta'lim va tarbiya mazmuni maqsad va vazifalarining amalga oshirishini ta'minlovchi pedagogik kadrlar;

tizimning ilmiy asosda ishlashini tashkil etuvchi ilmiy kadrlar;

ta'lim oluvchilar(ta'lim oluvchilar);

moddiy-texnik ta'minot;

tizim va uning samaradorligi ko'rsatkichlarining moliyaviy ta'minoti;

shart-sharoit(psixofiziologik, sanitar-gigienik, estetik va ijtimoiy);

tashkil etish va boshqarish.

Amerikalik pedagog F.G.Kumbs quyidagilarni ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari deb hisoblaydi:

tizimning faoliyatini aniqlashtirib beruvchi maqsad va asosiy vazifalar;

ta'lim oluvchilar hamda tizimning asosiy vazifasi hisoblanuvchi o'qitish;

tizim faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlik va baholashni amalga oshiruvchi boshqarish;

turli vazifalar bilan bog'liqlikda o'quv muddati hamda ta'lim oluvchilar guruhining tuzilishi va taqsimlanishi;

mazmun - eng asosiysi, ta'lim oluvchilar ma'lumotga ega bo'lishlari shart; o'qituvchilar;

o'quv qo'llanmalar: kitoblar, doskalar, xaritalar, filmlar, laboratoriyalar va boshqalar;

o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan bino;

texnologiya - ta'limda foydalaniladigan barcha metod va usullar;

bilimlarni baholash va nazorat qilish: qabul qilish, baholash, imtihonlar, tayyorgarlik sifati qoidalari;

bilimlarni oshirish va tizimni takomillashtirishi uchun tadqiqot ishlari;

ta'lim samaradorligi ko'rsatkichlari xarajatlari.

Pedagogik jarayoni o'qituvchi tomonidan yaratilgan. Oqim yoki uning yaratuvchisi bo'lishidan qat'i nazar, u har doim bir xil tuzilishga ega: Maqsad - tamoyillar - tarkib - usullar - shakllar. Maqsadda o'qituvchi va talaba izlayotgan pedagogik o'zaro ta'sirning yakuniy natijasi aks ettiradi. Bu pedagogikaning tizimni shakllantiruvchi omil. Maqsad pedagogik jihatdan ta'birli ijtimoiy tajribaga xosdir, u albatta o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatida va faoliyatida mavjud.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish orqali Mustaqil Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimining umumiy maqsadi komil insonni shakllantirish. Bu umumiy maqsad har bir bo'g'in (ta'lim turlari) va o'ziga xos maqsadlarga bo'linadi. Hamma bo'g'indagi umumiy maqsadga funksional, ya'ni bajaradigan vazifasi jihatdan o'zaro bog'lanishda, aloqadorlikda bo'ladi. Bular uchun umumiy tomon maqsaddir. Demak, pedagogik tizim uchun struktura(tuzilish) dan keyin belgilovchi komponent(xususiyat) maqsad hisoblanadi.

Pedagogik jarayon muayyan tizim hisoblanadi. Shu jarayonni boshqarish, ya'ni ta'lim muassasasi ichki boshqaruvi ham murakkab tizim sifatida ikkita tizim: boshqaruvchi direktor(uning o'rinbosarlari, o'qituvchilar metod birlashma rahbarlari, jamoat tashkilotlari, o'quvchilar jamoasi rahbarlari) va boshqariluvchi(pedagoglar jamoasi, o'quvchilar jamoasi) lardan

tashkil topadi va ular doimo mustahkam birlikda va o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Bular o'rtasidagi bog'lanishlarni chuqur tushunish va ular imkoniyatidan foydalanish ularga tizim sifatida qarashni taqozo qiladi. O'quv yurti ichki nazoratiga tizim sifatida yondashish pedagogik jarayon qonuniyatlarining mohiyatini va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunish, ular harakatini o'zaro muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. Har bir tarkibiy qismning umumiy tizimdagi o'rnini alohida aniqlash, shu bilan birga ularni uyg'unligi, bir butunligini chuqur tasavvur qilish asosida yaxlitligini ta'minlashga imkon beradi. Bunda pedagogik jarayon har tarkibiy qismning o'z funksiyasini bajarishi butun tizim maqsadiga erishishini ta'minlovchi mexanizm sifatida qarash lozim.

Shu asosda pedagogik jarayon sub'ektlari rahbarlar, pedagoglar va o'quvchilar jamoasi harakatlarining maqsadi, mazmuni, vosita va metodlarini umummaqsadga erishishi uchun yo'naltirish mumkin bo'ladi.

Bu jarayon o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, ularning faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga va samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayon faqat bilim berish bilan cheklanib qolmaydi. Ma'naviy tarbiya dars jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish — bu shunchaki bilim berish emas, balki bolada o'qishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish san'atidir. Har bir o'quvchining individual qobiliyatini payqash va uni qo'llab-quvvatlash. Sinfdan qo'rquvdan xoli, samimiy va ijodiy muhit yaratish. Boshlang'ich sinflarda pedagogik jarayonni

to'g'ri tashkil etishda o'qituvchi maxorati To'g'ri tashkil etilgan dars — o'quvchining pedagogning zamonaviy texnologiyalarni kelajakdagi katta yutuqlari uchun egallagani va o'z ustida doimiy ishlashi. mustahkam poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, "Sano-standart" nashriyoti
2. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU. 2012.
3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019
4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." International Bulletin of Applied Science and Technology 3 (2023): 151-154.
5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." Academic research in educational sciences 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.
6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." Молодежь и XXI век-2015. 2015.
7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 8-2 (2018): 58-60.
8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 5-6 (2018): 53-55.
9. Madina, N. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CIRCULATION IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS ON THE BASIS OF INDICATIVE EDUCATIONAL MODELS. Eurasian Journal of Academic Research, 4(11), 144-146.
10. Мадина, Н. (2024). Педагогические условия совершенствования системы циркуляции в подготовке будущих специалистов на основе показательных образовательных моделей. Евразийский журнал академических исследований , 4 (11), 144-146.
11. Nurmatova, M. O., & Abdullayeva, D. N. (2025). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA O 'QITUVCHILIK MAXORATNING TUTGAN O 'RNI VA AHAMIYATI. Inter education & global study, 3(5 (1)), 213-218.
12. Зияев А.Н., Хушназарова М.Н., Меликузиева М.А., Абдулладжанова С.А., Абдуллаева Д., Нурматова М. и Екубьонова Г.Х. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. САНИЕРS MAGELLANES-NS , 6 (2), 7938-7944..
13. Gulyamova, Z. R., & Nurmatova, M. O. (2014). FEATURES OF THE FUNCTIONING AND WORD FORMATION OF SLANG UNITS. The Way of Science, 45.